

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ESENBAEV DJANIBEK TAIROVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAVQULODDA VAZIYATLARDAN
MUHOFAZA QILISH VA FUQARO MUHOFAZASI SOHASIDA
MA’MURIY-HUQUQIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

12.00.02. – Konstitusiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

**YURIDIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOCTORI DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus shahri – 2025 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)****Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)****Esenbaev Djanibek Tairovich**

О‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma‘muriy-huquqiy boshqaruvini takomillashtirish masalalari..... 3

Esenbaev Djanibek Tairovich

Вопросы совершенствования административно-правового управления в области защиты от чрезвычайных ситуаций и гражданской защиты в Республике Узбекистан..... 26

Esenbaev Djanibek Tairovich

Issues of improving administrative and legal management in the field of emergency situations and civil defense in the Republic of Uzbekistan..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ESENBAEV DJANIBEK TAIROVICH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAVQULODDA VAZIYATLARDAN
MUHOFAZA QILISH VA FUQARO MUHOFAZASI SOHASIDA
MA’MURIY-HUQUQIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI

12.00.02. – Konstitusiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

YURIDIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOCTORI DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Nukus shahri – 2025 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.1.PhD/Yu670 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertasiyasi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-cahifasida (www.karsu_info@edu.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Kutibaeva Elizaveta Duysenbaevna yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponenlar:	Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna yuridik fanlari doktori, professor Yuldashev Jahongir Xayitboevich yuridik fanlari doktori, professor
Etakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "26" mart kuni soat 12.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 joy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: karsu.info@gmail.ru).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№261 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, №1 joy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "12" mart kuni tarqatildi.

(2025 yil 12-mart_ "8" raqamli reestr bayonnomasi).



I.T.Tul'teev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

G.M.Berdimuratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kengashi, yuridik fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Z.A.Reymova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish, ushbu sohani ma'muriy-huquqiy boshqaruvning asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo hamjamiyati favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasiga oid qonunchilik bazasini isloh qilish orqali aholi va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek, fuqaro muhofazasini ta'minlash muammosini hal qilishning samarali usullarini topishga intilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda 43 ta favqulodda holat e'lon qilingan va 29 mamlakatga yordam berish maqsadida butun dunyo bo'ylab 16,7 million kishiga dastlabki yordam berish uchun 7,4 million dona narsa va buyumlar, oziq-ovqatlar, jami 53,5 million AQSH dollari miqdoridagi favqulodda yordam materiallari etkazib berilgan. Bu kabi holatlar favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan paytda aholi va xududlarni muhofaza qilish sohasidagi ma'muriy-huquqiy boshqaruvning samarali tizimini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish hamda qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahonda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasini ma'muriy-huquqiy boshqaruv bilan bog'liq tizimini takomillashtirish, jumladan davlat organlarining bu sohaga oid vakolatlari asoslari va doirasini belgilash, fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi huquq va erkinliklari ta'minlanishi, majburiyatlarining ijro etilishi samaradorligini oshirish, favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi sohasidagi ma'muriy-huquqiy rejimlarning xalqaro standartlar va huquq me'yorlariga moslashtirish kabi masalalar yuzasidan ilmiy-amaliy va fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish, ushbu sohani boshqarish bilan munosabatlarda davlat hokimiyati organlari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari rolini oshirish, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishga alohida ahamiyat berilib, aholi va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organlar, tadbirkorlik faoliyati subyektlari va fuqarolarning huquq va majburiyatlari bajarilishining samaradorligi va ta'sirshanligini oshirish kabi masalalar birlamchi vazifa etib belgilandi. Bu esa o'z navbatida, mazkur sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishning ilmiy asoslangan echimlarini ishlab chiqish hamda tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Aholini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni (2022), «Favqulodda holat to'g'risida»gi Qonuni (2021), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 son «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni, 2017 yil 8 sentyabrdagi

5185-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy islohotlar Kontseptsiyasi», O‘zbekiston Respublikasining «Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mahalliy miqyosda bu muammoga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar deyarli olib borilmagan. Ayrim olimlar, xususan, X.A.Alimov, I.A.Xamedov, L.B.Xvan, I.M.Saylar davlat boshqaruvining ayrim tarmoqlari va sohalari, shu jumladan favqulodda vaziyatlarni boshqarish masalalarini o‘rganib chiqqan.

Shuningdek, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasining huquqiy asoslari, bu sohada davlat organlari vakolatlari, fuqarolarning huquq va majburiyatlari, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning ma‘muriy-huquqiy rejimlari O.Xusanov, E.Kutibaeva, B.Daumenov, G.Ismoilova, G.Malikova, E.Xojiyev, S.Allambergenov va boshqa olimlar tomonidan qisman tadqiq qilingan.

Favqulodda vaziyatni aniqlash va uning ma‘muriy-huquqiy rejimini ta‘minlash muammolari ma‘muriy-huquqiy sohasidagi quyidagi xorijiy olimlar tomonidan ko‘p yillar davomida chuqur nazariy tadqiqotlar olib borildi: A.B.Agapova, N.I.Arkipova, D.N.Baxrax, A.D.Blagov, L.S.Komovkina, N.T.Leonenko, N.V. Lermontova, S.S.Mailyan, A.F. Nozdrachev, N.V.Polyakova, B.N.Porfirev, I.S.Rozanova, V.B.Rushaylo, Yu.N.Starilov, S.A.Starostina, A.G.Uporova, S.D.Xazanova, A.F.Xorujenko va boshqa olimlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq «Davlat boshqaruvi va axborot jamiyatining barcha sohaslarini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari» mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma‘muriy-huquqiy boshqaruvning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi:

favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi, ma‘muriy-huquqiy rejim tushunchasi, mohiyati va xususiyatlarini aniqlash;

favqulodda vaziyatlarni tasniflash;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi ma'muriy-huquqiy boshqaruv qonunchiligining joriy holatini tahlil qilish;

davlat organlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlarini tahlil qilish asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni shakllantirish;

fuqarolarning, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi huquq va majburiyatlarini qiyosiy tahlil qilish;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma'muriy-huquqiy boshqaruvning xorij tajribasini o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va milliy tizimga tatbiq etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti - O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma'muriy-huquqiy boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan ma'muriy-huquqiy munosabatlar.

Tadqiqotning predmeti - O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma'muriy-huquqiy boshqaruv sohasidagi muammolar, ushbu sohani tartibga soluvchi huquq normalari va ularni qo'llash amaliyoti, chet el davlatlari tajribasi, sohaga doir ilmiy-nazariy karashlar hamda metodologik yondashuvlar.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, mantiqiy, dialektik, tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, statistik tahlil va sotsiologik so'rovlar o'tkazish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aholi maskanlari va obyektlarining favqulodda vaziyatlar bo'yicha namunaviy xavfsizlik pasportlarini tuzish, kelishish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizom talablarini buzgan aybdor shaxslarga qonunda belgilangan tartibda javobgarlik qo'llanilishi lozimligi asoslantirilgan;

“tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar” tushunchasining mazmun-mohiyatini qonunosti hujjatlarida yoritib berish zarurligi asoslantirilgan;

Favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqaro muhofazasi sohasida rahbarlikni amalga oshiruvchi, fuqaro muhofazasi xizmatlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, ushbu sohada normativ-huquqiy hujjatlar talablarining bajarilishini ta'minlovchi davlat organi sifatida huquqiy maqomini qonunchilikda mustahkamlash zarurligi asoslantirilgan;

Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari va funktsiyalari qatoriga fuqaro muhofazasi sohasidagi vazifa va funktsiyalarini kiritish lozimligi asoslantirilgan;

respublika darajasidagi favqulodda vaziyatlarning rejimlarini joriy etish yuzasidan Favqulodda vaziyatlar vazirligining Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritishi mumkinligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar” atamasini aniqlashtirish maqsadida “ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar” ta’rifining mualliflik talqini ishlab chiqilgan;

evakuatsiya chora-tadbirlari mazmuni tahlili natijasida evakuatsiya tushunchasining mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni bevosita huquqiy tartibga soluvchi “Aholi va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to’g’risida”gi va “Fuqaro muhofazasi to’g’risida”gi Qonunlariga qo’shimchalar va o’zgarttirish kiritish yuzasidan taklif va tavsiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida keltirilgan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalari Konstitutsiyalari va qonunlarini, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida davlat hokimiyati organlari, xususan Vazirlar Mahkamasi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, maxsus vakolatli davlat organlari amaliyotini tahlil qilish asosida ishlab chiqilganligi; O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va mahalliy boshqarmalaridan olingan materiallar va boshqa rasmiy manbalardan foydalanilganligi; xulosalarni umumlashtirishda tadqiqot mavzusi bo‘yicha qator olimlarning, tadqiqot natijalarining milliy va chet el etakchi nashrlarida chop etilganligi shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligi sohasida, mavzuga oid qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda va takomillashtirishda hamda sohaga oid fanlarni o‘qitishda, o‘quv va metodik qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularning amaliyotga tatbiq etilishi mavzuga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishga, ularning amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma’muriy-huquqiy boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

aholi maskanlari va obyektlarining favqulodda vaziyatlar bo‘yicha namunaviy xavfsizlik pasportlarini tuzish, kelishish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom talablarini buzgan aybdor shaxslarga qonunda belgilangan tartibda javobgarlik qo‘llanilishi lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2024-yil 15-maydagi 144-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Aholi punktlari va obyektlarning namunaviy xavfsizlik pasportlarini tuzish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi”gi Nizomning 19-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2024 yil 31 maydagi 5/4/13-1744

–sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi tegishli qonunchilik normalari talablarini buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari qo‘llashning huquqiy asoslari shakllantirilishiga xizmat qilgan;

“tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar” tushunchasining mazmun-mohiyatini qonunosti hujjatlarida yoritib berish zarurligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2024-yil 15-maydagi 144-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Aholi punktlari va obyektlarning namunaviy xavfsizlik pasportlarini tuzish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi”gi Nizomning 2-bandi oltinchi xat boshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2024 yil 31 maydagi 5/4/13-1744-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tushunchasining huquq qo‘llashda va amaliyotda to‘g‘ri talqin etilishiga xizmat qilgan;

Favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqaro muhofazasi sohasida rahbarlikni amalga oshiruvchi, fuqaro muhofazasi xizmatlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, ushbu sohada normativ-huquqiy hujjatlar talablarining bajarilishini ta‘minlovchi davlat organi sifatida huquqiy maqomini qonunchilikda mustahkamlash zarurligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 apreldagi PQ-4276-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risida»gi Nizomining 2-bandiga o‘zgartirish kiritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2024 yil 20 iyundagi 5/4/13-197-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqaro muhofazasi sohasida rahbarlikni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi sifatida huquqiy maqomini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari va funktsiyalari qatoriga fuqaro muhofazasi sohasidagi vazifa va funktsiyalarini kiritish lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 apreldagi PQ-4276-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risida»gi Nizomining 12-13-bandlariga qo‘shimchalar kiritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2024 yil 20 iyundagi 5/4/13-197-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqaro muhofazasi sohasidagi vazifa va funktsiyalarining qonunchilikda huquqiy mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

respublika darajasidagi favqulodda vaziyatlarning rejimlarini joriy etish yuzasidan Favqulodda vaziyatlar vazirligining Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritishi mumkinligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 apreldagi PQ-4276-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risida»gi Nizomiga yangi norma kiritilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2024 yil 20 iyundagi 5/4/13-197-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi favqulodda vaziyatlar rejimida

O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatining takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining «Inson huquqlari, davlat huquqi va boshqaruv» kafedrasida, shuningdek, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari hamda davra suhbatlarida aprotatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ishlar, jumladan, 6 ta maqola (Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta maqola, 2 ta maqola xorijiy jurnalda), 5 ta tezis (2 ta respublika va 3 ta xalqaro konferentsiyalarda) tayyorlangan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflanib, ularning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

“Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma‘muriy-huquqiy boshqaruv tushunchasi, mohiyati va xususiyatlarining nazariy-huquqiy jihatlari” deb nomlangan birinchi bobda favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi tushunchasi va ma‘muriy huquqiy rejimi tushunchasi va xususiyatlari tahlil qilingan, shuningdek, favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi sohasini tartibga solishning huquqiy-konseptual asoslari tahlili amalga oshirilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi tushunchasi va umumiy tavsifi”* deb nomlangan bo‘lib, unda muallif tomonidan favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi tushunchalari olimlar qarashlari va qonunchilik normalari asosida tadqiq etilgan.

“Favqulodda vaziyatlar” tushunchasi mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy yondashuvlar va olimlar (B.N.Porfirev, N.I.Arkipova, V.V.Kulba, V.V.Gum‘in, S.A.Starostin) qarashlari, milliy qonunchilik normalari asosida o‘rganilgan. “Favqulodda vaziyat” va “fuqaro muhofazasi” tushunchalari ta‘rifini o‘z ichiga olgan bir qator me‘yoriy va doktrinal ilmiy adabiyotlar tahlili asosida favqulodda vaziyatlarni tasniflash masalalari va “fuqaro muhofazasi” sohasining aniq predmeti chegaralari bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emasligini bayon etadi.

Tadqiqotchi milliy qonunchilik normalarini o‘rganib, “favqulodda vaziyat”lar tushunchasi asosiy Qonunda yoritilmaganligini, O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunida va mazkur sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarda “tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda

vaziyatlar” tushunchasiga berilgan ta’rif umumiy ma’noda aks ettirilganligini e’tirof etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi 455-son qarorida berilgan favqulodda vaziyatlarning tasnifi juda rasmiylashtirilgan ko‘rinishga egaligini, favqulodda vaziyatlarning sabablari va shartlari spektri, transchegaraviy xarakterdagi va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarga taalluqli masalalar to‘liq ochib berilmaganligini ta’kidlaydi.

Dissertant tomonidan yuqorida atab o‘tilgan Hukumat qarorida va O‘z DsT 981:2000-son «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Asosiy tushunchalarning atamalari va ta’riflari» davlat standartida «ekologik xususiyatli favqulodda vaziyat» tushunchasi qo‘llanilishi va favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablariga (manbalariga) ko‘ra tabiiy, texnogen va ekologik tushunchalardagi turlariga ajratilishi qayd etilgan. Tahlillar natijasida, qonunda yoki qonunosti xujjatida «ekologik xususiyatli favqulodda vaziyat» tushunchasi mazmun-mohiyati to‘liq ochib berilishi va tegishli qonunda favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari bo‘yicha turlarini qayta tasniflash zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqotchi fikricha, ekologik favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining asosiy sababi - ekologik talablarni hisobga olmagan holda milliy iqtisodiyotni va birinchi navbatda sanoatni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini hal qilishda kompleks yondashuvning yo‘qligi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilishda yuzaga keladigan holatlardir.

Tahlillar natijasida muallif “Favqulodda vaziyatlar ro‘y berish manbaiga qarab tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarga, texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarga hamda ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlarga bo‘linadi” degan xulosaga kelib, ushbu normani O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunida mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydi va «ekologik xususiyatli favqulodda vaziyat» tushunchasining mualliflik talqinini ilgari suradi.

Dissertant ushbu taklifini amaliyotchi mutaxassislarning fikri bilan asoslashga harakat qilgan. Xususan, surovnomada ishtirok etgan mutaxassislarga (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida xizmat qiluvchi (ishlovchi) xodimlar) **“Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tushunchasi qatoriga ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar tushunchasini ham qonunchilikga kiritish zarurmi”** degan savol bilan murojaat qilinganda, respondentlarning 80,5 foizi ushbu taklifni ma’qullashlarini bildirgan.

Tarixdan ma’lumki, tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg‘in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida obyektlarning ishlashini ta’minlash hamda urush oqibatida vayron bo‘lganlarni qutqarish va tiklash ishlarini o‘z vaqtida samarali amalga oshirish vazifasi fuqaro mudofaasi tizimi orqali amalga oshirilgan.

Og‘ir oqibatlarga olib keluvchi favqulodda vaziyatlar yuz bergan paytda uning oqibatlarini bartaraf etish va aholini muhofaza qilishga fuqaro mudofaasi tizimi kuchlari etarli emasligi fuqaro mudofaasi tizimi o‘rnida yangi bir tizim

tashkil etilishi ehtiyojligidan “fuqaro muhofazasi” tizimi yuzaga kelganligi asoslantirilgan.

Fuqaro muhofazasi tizimi milliy qonunchilik normalari asosida tahlil qilinib, mazkur tizim harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar natijasida yuzaga keladigan xavflardan muhofaza qilish maqsadida qator vazifalarni amalga oshirishi qayd etilgan.

Dissertant tomonidan MDH davlatlari (Qozog’iston, Qirgiziston) qonunchiligi o’rganilib, ushbu davlatlarda fuqaro muhofazasi ham tinchlik ham urush davrida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarini oldini olish va bartaraf etishga, fuqaro mudofaasini tashkil etish va o’tkazishga doir chora-tadbirlar majmui sifatida bayon etilishini ta’kidlab, “fuqaro muhofazasi” tushunchasiga mualliflik talqinini ilgari suradi.

Mazkur bobning *“Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasining ma’muriy - huquqiy rejimi tushunchasi, mohiyati va xususiyatlari»* deb nomlangan ikkinchi paragrafida favqulodda vaziyatlarning ma’muriy-huquqiy rejimi muammosi huquqshunos olimlarning (A.B.Agapov, D.N.Baxrax, A.D.Leonenko, S.S.Mailyan, A.F.Nozdachev, O.A.Ralitnaya, V.B.Rushailo, Yu.N.Starilov) qarashlari asosida tahlil qilingan.

Muallif ma’muriy-huquqiy rejimni tegishli funksional va maqsadli vazifalarga ega ommaviy huquq sohasidagi maxsus huquqiy rejimning bir turi, deb hisoblaydigan olimlar fikrini qo’llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda favqulodda vaziyatlar davlat tizimining kundalik rejimi, yuqori tayyorgarlik rejimi va favqulodda vaziyat rejimlari mavjud bo’lib, tadqiqotchi tomonidan mazkur rejimlarning o’rnatilish asoslari, amalga oshiriladigan tadbirlar tahlil qilingan. Muayyan hududda, obyektida favqulodda vaziyatlar ro’y berishi xavfi mavjud bo’lmaganda kundalik rejim, favqulodda vaziyatlar ro’y berishi xavfi mavjud bo’lganda yuqori tayyorgarlik rejimi, favqulodda vaziyatlar ro’y berganda va favqulodda vaziyatlar davrida favqulodda vaziyat rejimi o’rnatilishi qayd etiladi. Tadqiqotchi tomonidan ma’muriy-huquqiy rejimlar orasida «favqulodda vaziyatlar rejimi» muayyan harakatlar mazmuniga, ayrim subyektlar va obyektlarga tegishli ekanligini asoslantirgan.

Ma’muriy-huquqiy rejimlar orasida *favqulodda holat rejimi* fuqarolarning huquq va erkinliklarini jiddiy cheklashni nazarda tutadi. Tadqiqotchi, ushbu cheklash choralari nafaqat jismoniy, yuridik shaxslar, balki davlat boshqaruv organlarining huquqlariga ham ta’sir qilishi va majburiyatlar yuklashini ta’kidlaydi.

Ma’muriy-huquqiy rejimning muhim tarkibiy qismi sifatida evakuasiya tadbirlari ya’ni "evakuasiya" va "vaqtinchalik ko’chirish" tushunchalari turli xil normativ-huquqiy hujjatlarda qo’llaniladi. Muallif ushbu tushunchalarning ta’rifi mavjud emasligi, aholini, moddiy va madaniy boyliklarni evakuasiya qilish tartibi, amalga oshirish mexanizmlariga oid huquqiy normalar qonunchilikda berilmaganligini qayd etadi.

Dissertant tadqiqot ishida evakuasiya qilishda nafaqat aholi, davlat ahamiyatiga molik moddiy va madaniy boyliklarni ham xavfsiz joylarga ko’chirish inobatga olinishi zarur, degan fikrni ilgari suradi.

Paragraf doirasida dissertant “ma’muriy-huquqiy rejim”, “evakuasiya tadbirlari” tushunchalariga nisbatan o‘zining ta’rifini bergan. Mazkur tushunchalar favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasini ma’muriy-huquqiy boshqaruvning nazariy masalalarini to‘liq yoritishga, ilmiy maktabni shakllantirishga xizmat qiladi.

Dissertasiyaning **“Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasini tartibga solishning huquqiy-konseptual asoslari”** deb nomlangan uchinchi paragrafida, favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasini ma’muriy-huquqiy boshqaruvga doir munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar qo‘yidagicha tasniflangan: 1) xalqaro umume’tirof etilgan hujjatlar (*Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi, ikkitomonloma shartnomalar va bitimlar va boshqalar*); 2) umumiy qoidalarni nazarda tutuvchi hujjatlar (*O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi*); 3) Konseptual-huquqiy hujjatlar (*«2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi» (92-maqsadi), «O‘zbekiston-2030» Strategiyasi (98-bandi) va b.*); 4) favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasini ma’muriy-huquqiy boshqaruvning tashkiliy va amaliy jihatlarini bevosita tartibga solishga qaratilgan hujjatlar (*«Aholini va hududlarini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonun, “Favqulodda holat to‘g‘risida” gi Konstitusiyaviy qonun, «Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Prezidentining “Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Prezidentining “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Texnogen, tabiiy va ekologik xarakterdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida» gi qarori va b.*); 5) favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasini ma’muriy-huquqiy boshqaruvni tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sohaga doir qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining buyruqlari va qarorlari va b.*).

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan sohaga doir barcha normativ-huquqiy hujjatlar **yagona kodekslashtirilgan huquqiy hujjatga birlashtirish maqsadga muvofiqligi** asoslantirilgan.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **«Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma’muriy-huquqiy boshqaruv asoslari»** deb nomlanib, unda davlat organlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari, shuningdek, fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi huquq va majburiyatlari tasnifi va ahamiyati tadqiq etilgan.

D.N.Baxrax, Yu.A.Tixomirov, A.V.Melexin, V.B.Rushailo, Yu.A.Kopitov, K.S.Belskiy kabi olimlarning davlat organlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasiga doir vakolatlariga oid fikrlari chuqur tahlil qilingan. Dissertantning ta’kidlashicha, mamlakatimiz yuridik sohasida bu masalalar etarlicha yoritilmagan.

Muallif tomonidan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish fuqaro muhofazasi sohasini davlat tomonidan tartibga solish umumiy vakolatli boshqaruv organlari, maxsus vakolatli organlar va boshqa organlarga ajratilgan holda tadqiq etilgan.

Vazirlar Mahkamasi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlovchi va fuqaro muhofazasiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi umumiy vakolatli organ sifatida talqin etilgan. Qonunchilikda Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlariga rahbarlikni amalga oshirishda, ularning ishini muvofiqlashtirish, yo'naltirish, ushbu organlar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining hisobotini eshitish kabi vakolatlarga ega ekanligi tasdiqlangan. Lekin, ushbu qoidalar Vazirlar Mahkamasining favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarida berilmaganligi tadqiqotchi tomonidan qayd etilib, ushbu normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish zarurati asoslantirilgan.

Olimlar (M.A.Axmedshaeva, A.Xoshimxonov) qarashlari va qonunchilik normalari tahlili asosida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida maxsus vakolatli organ sifatida Favqulodda vaziyatlar vazirligi funksiyalari tartibga soluvchi, tashkiliy xarakterdagi va nazorat funksiyalari kabi turlarga tasniflangan holda o'rganilgan.

Tadqiqot davomida dissertant tomonidan Favqulodda vaziyatlar vazirligining huquqiy maqomi va vakolatlarining qo'yidagicha takomillashtirishga muhtoj jihatlari sanab o'tilgan:

birinchidan, vazirlikning maxsus vakolatli organ sifatida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi muvofiqlashtirish, chora-tadbirlar ishlab chiqish, ta'minlashga doir vakolatlarini tahlil qilgan holda "Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan vazirlikning vakolatlariga qo'shimchalar kiritish va tegishli qonunosti hujjatlarini ham ushbu qonunga muvofiqlashtirish zarurligi;

ikkinchidan, qonunlarda¹ Favqulodda vaziyatlar vazirligining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida yagona siyosatni amalga oshiruvchi, ushbu sohalarga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi sifatida huquqiy maqomi mustahkamlangan bo'lsada, qonunosti hujjatining² 2-bandida fuqaro muhofazasi sohasidagi davlat boshqaruvi organi sifatidagi maqomi yoritilmaganligi;

¹ O'zbekiston Respublikasining «Aholini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni 17.08.2022 yildagi O'RQ-790-son bilan qabul qilingan. //Elektron manba. <https://lex.uz/docs/6161244#6162121> va O'zbekiston Respublikasining «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi Qonuni 26.05.2000 yildagi 80-II-son bilan qabul qilingan. // Elektron manba. <https://lex.uz/docs/32994>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2019-yildagi "Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4276-son qarori.//<https://lex.uz/docs/4326824>

uchinchidan, nazarda tutilayotgan qonunosti hujjati³ning 12-bandida vazirlikning asosiy vazifalari sifatida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, yong'in xavfsizligi, seysmik kuzatuvlar, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga doir vazifalari bayon etilib, fuqaro muhofazasi sohasidagi bajaradigan asosiy vazifalari nazarda tutilmaganligi xulosa qilingan.

Tahlillar natijasida muallif tomonidan maxsus vakolatli organ sifatida Favqulodda vaziyatlar vazirligining vakolatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasida vakolatlari tahlili natijasida maxsus vakolatli davlat organining mazkur sohaga oid qabul qilgan qarori ijrosini va mahalliy fuqaro muhofazasi kuchlari shayligini (tayyorgarligi) ta'minlashga doir vakolatlarini qonunchilikda mustahkamlash zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotchi tomonidan hududlarda favqulodda vaziyatlar monitoringi, prognozlash, oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish muammolarini hal etishda ishtirok etuvchi davlat organlari, kuch va vositalarni muvofiqlashtirishning samarali mexanizmi mavjud emasligi alohida ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini favqulodda vaziyatlar xavfi va tahdidlarining barvaqt oldini olishga, aholiga o'z vaqtida va har tomonlama yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan mobil, zamonaviy, ularning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirsa, har bir xodim tomonidan "Ogohlantirish, qutqarish va o'z vaqtida yordam berish" shiori ostida xizmat ko'rsatish kabi professional xizmatga aylantirilishi kerakligi qayd etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan respublikada favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha tuziladigan hukumat va hududiy komissiyalar faoliyati tahlil qilingan. Masalan, 2023 yili 29-yanvar kuni Nukus shahri, 22 kichik tumani, 8/1-sonli ko'p qavatli uyda sodir bo'lgan havo-gaz aralashmasining chaqnashi natijasida sodir bo'lgan favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha xududiy komissiyasi - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va Nukus shahri hokimi – Fuqaro muhofazasi boshlig'i sifatida ish olib borgan.

Mazkur lavozimli shaxslar tegishli davlat organlari va tashkilotlarga yuzaga kelgan favqulodda vaziyatning oqibatlarini bartaraf etish, havo-gaz aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanishning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar o'tkazilishi bo'yicha topshiriqlar yuklatish va nazorat qilish vakolatiga ega ekanligi xulosa qilingan.

«Fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi huquq va majburiyatlari» deb nomlangan ikkinchi paragrafida fuqarolarning favqulodda vaziyatlar vaqtida, oqibatlarini bartaraf etishda yuzaga keladigan huquqlari xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilik normalari, huquqshunos olimlar qarashlari asosida tahlil qilingan.

³ O'sha hujjat.

Muallif tomonidan O'zbekiston Konstitusiyasida bevosita favqulodda vaziyatdan jabrlangan shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va kafolatlarini belgilovchi huquqiy normalar mavjud emasligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, ko'pgina konstitusiyaviy normalar u yoki bu ma'noda ushbu toifadagi shaxslarning huquqiy maqomini belgilashi asoslantirilgan. Ya'ni, insonlarning huquqlari qo'yidagicha bir nechta guruhga ajratgan holda o'rganib chiqilgan:

birinchi guruh, insonning shaxsiy, iqtisodiy huquqlari bilan bog'liq, masalan, yashash huquqi, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqi va.b.;

ikkinchi guruh, favqulodda vaziyatlar yoki fuqaro muhofazasi vaqtida atrof-muhit holati to'g'risida ishonchli ma'lumot olish huquqi;

uchinchi guruh, favqulodda vaziyatlar yoki harbiy harakatlar natijasida sog'liq va mulkka etkazilgan zararni qoplash huquqi va b.

Tahlillar natijasida qonunchilik normalarida fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi huquqlari namoyon etilgan, lekin ularni amalga oshirishning qonuniy kafolatlarini haqida normalar berilmaganligi qayd etilgan.

Favqulodda vaziyatlardan yoki harbiy harakatlardan jabr ko'rgan shaxslarning alohida huquqiy maqomi texnogen yoki tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar sodir bo'lganidan keyin yuzaga kelishi va har xil turdagi kompensasiyalar, imtiyozlar va boshqalarni olish orqali etkazilgan ekologik, moddiy va ma'naviy zararni qoplash huquqlari tizimini ta'minlashi ta'kidlangan.

Tadqiqotchi shaxslarning huquqiy maqomini tashkil etuvchi tarkibiy qismlar tizimida huquqiy **kafolatlarining roli katta** degan xulosaga keladi. Xorijiy davlatlar (Qirg'iziston, Qozog'iston) va milliy qonunchilik normalari tahlili asosida, huquqiy kafolatlar favqulodda vaziyatlardan jabrlangan shaxslarning huquqiy holati elementi sifatida texnogen yoki tabiiy ofat yuz berganda insonni himoya qilishning hal qiluvchi omili bo'lib xizmat qilishi asoslantirilgan.

Har qanday favqulodda holat rejimining ajralmas elementi inson va fuqarolar huquqlari va erkinliklariga qo'shimcha cheklovlar joriy etishdir.

Ushbu cheklovlar fuqarolarning da'vo qilingan yoki haqiqiy noqonuniy xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lishi shart emas. Tadqiqotchi cheklashlar profilaktika xususiyatiga ega va odamlarning har qanday ijtimoiy faolligini oldini olish va hatto butunlay yo'q qilishga qaratilganligiga izoh beradi. Ular vakolatli davlat organlariga mavjud vaziyat talab qiladigan tezkor va samarali choralarni ko'rishni osonlashtirishi asoslantirilgan.

Jahon davlatlari Konstitusiyalari tahlili natijasida muallif tomonidan favqulodda rejimda inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini cheklashni konstitusiyaviy tartibga solishning beshta varianti ajratib ko'rsatilgan. Ya'ni:

birinchi variantda, Konstitusiyada favqulodda rejim paytida huquq va erkinliklarni cheklash mumkinligini to'g'ridan-to'g'ri belgilaydi yoki bilvosita taxmin qiladi (Kuba, Slovakiya, Turkmanistan va.b.);

ikkinchi variantda Konstitusiyada favqulodda rejimda muayyan huquq va erkinliklarni cheklash imkoniyati haqida aytiladi, ammo cheklanishi mumkin

bo'lgan huquq va erkinliklar ro'yxati ochiq qoladi (Italiya, Koreya, Singapur, Iordaniya va b.);

uchinchi variantda, Konstitusiyada qo'shimcha cheklovlar qo'yilishi mumkin bo'lmagan huquq va erkinliklar ro'yxati keltiriladi (Tojikiston, Nepal va b.);

to'rtinchi variantda, Konstitusiya qo'shimcha cheklovlar qo'yilishi mumkin bo'lgan huquq va erkinliklar ro'yxatini belgilaydi (Braziliya, Litva, Ekvador va b.);

beshinchida variantda, Konstitusiya ba'zi huquq va erkinliklarni favqulodda rejim ostida cheklash mumkin emasligini belgilaydi, boshqalari esa, aksincha bo'lishi mumkin (Peru Konstitusiyalari, Polsha).

Tadqiqotchi Konstitusiya cheklanishi mumkin bo'lgan huquq va erkinliklarning to'liq ro'yxatini belgilagan variant eng maqbul variant ekanligini e'tirof etadi. Ushbu variant qonun ustuvorligi talablariga javob berishi, qaysi huquq va erkinliklar cheklanishi kerakligini hal qilishda noaniqlik bo'lmashligini ta'kidlaydi. Muallif tomonidan ushbu usul orqali shaxs huquqlari va erkinliklariga Konstitusiyaga zid qo'shimcha cheklovlarga qarshi kafolat mavjudligi xulosa qilingan.

Dissertasiyaning «**Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma'muriy-huquqiy boshqaruvni tashkil etish va takomillashtirish yo'llari**» deb nomlangan uchinchi bobida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma'muriy-huquqiy boshqaruv borasidagi ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili amalga oshirilgan va respublikamizda ushbu sohani takomillashtirish yo'llari asoslab berilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi «*Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida ma'muriy-huquqiy boshqaruvning xorijiy tajribasi*» tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif tomonidan bir qator davlatlar (Rossiya, Qozog'iston, Belorusiya, GFR) qonunchiligi va amaliyoti o'rganilgan holda milliy tizimni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Rossiya Federasiyasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida maxsus vakolatli organlar mavjud. Bugungi kunda Rossiya Federasiyasi Fuqaro mudofaasi, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish vazirligi fuqaro mudofaasi, aholi va xududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, yong'in xavfsizligi va suv havzalarida odamlarning xavfsizligini ta'minlash sohasida boshqaruv, muvofiqlashtirish, nazorat va huquqiy tartibga solishni amalga oshiradi.

Mazkur mamlakatning aholi va hududlarning turli xarakterdagi xavf va tahdidlardan xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari aniq belgilab berilgan: favqulodda vaziyatlarda "davolash madaniyati" o'rniga "oldini olish madaniyati" birinchi o'rinda turadi, ya'ni, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, fuqarolarni ta'minlovchi axborot infratuzilmasini rivojlantirish, aholining ta'lim va savodxonligini oshirish shular jumlasidan.

Qozog'iston Respublikasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi tizimi Qozog'iston Respublikasining «Fuqaro muhofazasi

to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun qabul qilinishi bilan Qozog'iston Respublikasining «Tabiiy va texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlar to'g'risida»gi, «Yong'in xavfsizligi to'g'risida»gi, «Avariya qutqaruv xizmati va qutqaruvchilar maqomi to'g'risida»gi, «Fuqaro mudofaasi to'g'risida»gi, «Davlat moddiy zaxirasi to'g'risida»gi, «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi qonunlari o'z kuchini yo'qotib mazkur qonunlardagi normalar umumlashtirilgan holda bir qonunda mustahkamlangan.

Milliy qonunchilik bilan taqqoslagan holda tadqiqotchi yuqorida sanab o'tilgan qonunlar alohida qabul qilinganligini qayd etadi. O'zbekiston Respublikasining «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonunida harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O'zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlarning davlat tizimiga oid normalar berilganligiga izoh beradi.

Qozog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tabiiy va texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, fuqarolik mudofaasi, yong'in va sanoat xavfsizligini ta'minlashda rahbarlikni amalga oshiruvchi markaziy ijro etuvchi organ sifatida vakolatlari tahlil etilgan.

Qiyosiy tahlillar asosida, *O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risidagi nizomda vazirning vakolatlarini to'ldiradigan, xususan, vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishi va buning uchun shaxsan javobgar bo'lishi to'g'risidagi normalarni; shuningdek, o'z vakolatiga kiruvchi mehnat munosabatlari masalalari yuzasidan xodimlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari qo'llash huquqini beruvchi normalarni belgilash zarurligi asoslantirilgan.*

Belarusiya Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlar sohasidagi vakolatli boshqaruv organi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligidan farqli o'laroq, Belarus Respublikasi Vazirligining maqsadi yong'in, sanoat, yadro va radiasiya xavfsizligidan tashqari, xavfli yuklarni tashishni ta'minlash; davlat va safarbarlik moddiy zaxiralarini yaratish va saqlanishini ta'minlash; chernobil AESdagi halokat oqibatlarini bartaraf etish; radioaktiv chiqindilarni boshqarish kabi vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Tadqiqotchi fikricha, Belarusiya Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi vakolatlari orasida yadro xavfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ikki davlat qonunchiligi tahlili asosida, vazirning vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining vakolatlaridan ancha kengroq ekanligi qayd etilgan.

Mazkur bobning **“O'zbekiston Respublikasining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi qonunchiligini takomillashtirish»** deb nomlangan ikkinchi paragrafida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasini ma'muriy-huquqiy boshqaruvning bugungi holati tadqiq etilgan hamda uni takomillashtirish istiqbollari yoritilgan.

